Mahalliy ilmiy manbalarda ham innovatsiya tushunchasiga keng yondashuv mavjud. Xususan, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da innovatsiya "kiritilgan yangilik" va "ixtiro" ma'nolarini anglatishi qayd etilgan (O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006). "Bolshaya ekonomicheskaya ensiklopediya"da innovatsiya bozor ehtiyojlaridan kelib chiqib ishlab chiqarishga texnologik, tashkiliy va moddiy yangiliklar kiritish bilan bog'liq faoliyat sifatida tavsiflangan (Bolshaya ekonomicheskaya ensiklopediya, 2007). Shuningdek, "Iqtisodiyot va moliya" elektron lug'atida innovatsiya fan yutuqlari va ilg'or tajribalar asosida texnika, texnologiya, mehnatni tashkil etish hamda boshqaruv sohalariga kiritiladigan yangiliklar sifatida izohlangan ("Iqtisodiyot va moliya" elektron lug'ati, 2020).



Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, innovatsiya tushunchasi turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan bo'lsa-da, ularning aksariyati innovatsiyalarni iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida baholaydi. Demak, innovatsiyalar iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda raqobatbardoshlikni ta'minlashning ustuvor omillaridan biri hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kimyo sanoati korxonalarining innovatsion faoliyatini moliyalashtirishni yanada takomillashtirish choralariga oid nazariy bilimlarning shakllanish bosqichlarini tadqiq etish jarayonida tizimli tahlil, induksiya-deduksiya, kompleks baholash, mantiqiy hamda taqqoslama tahlil usullaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikaning zamonaviy kimyo sanoati tarixi Shorsuv oltingugurt konining 1932-yilda ishga tushirilishi bilan boshlanadi. 1940-yilda kimyo sanoatining yirik korxonalaridan biri bo'lgan Chirchiq elektr-kimyo kombinati (bugungi kunda "MAXAM-CHIRCHIQ" AJ) faoliyat boshladi. 1962-yilda Farg'ona azotli o'g'itlar zavodi (bugungi kunda "Farg'onaazot" AJ), 1964-yilda Navoiy kimyo kombinati (bugungi kunda "Navoiyazot" AJ), 1969-yilda esa Olmaliq kimyo zavodi (bugungi kunda "Ammofos" AJ) ishga tushirildi.

Bugungi kunda mamlakatimiz kimyo sanoatida faoliyat yurituvchi asosiy majmua "O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi. Jamiyat tarkibiga 14 ta sanoat korxonasi, ilmiy-tadqiqot va loyihalash institutlari, shuningdek, "Kimyotrans" hamda "Kimyotrans-logistik" tashqi iqtisodiy transport-ekspeditorlik tashkilotlari, shuningdek "Hamkor-servis" brokerlik kompaniyasi kiradi.

"O'zkiyosanoat" AJ O'zbekiston Respublikasi kimyo korxonalarini birlashtiruvchi yagona korporativ tizim bo'lib, jamiyat kimyo korxonalarining ishlab chiqarish, innovatsion va marketing dasturlarini ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi. Shu orqali kimyo sanoatining barqaror rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda.

Hozirgi vaqtda "MAXAM-CHIRCHIQ", "Navoiyazot" va "Farg'onaazot" aksiyadorlik jamiyatlari azotli o'g'itlar — ammiakli selitra, karbamid va ammoniy sulfat ishlab chiqarmoqda. "Ammofos", "Samarqandkimyo" hamda "Qo'qon superfosfat zavodi" aksiyadorlik jamiyatlari esa fosforli o'g'itlar — ammfos, superfos, oddiy ammoniyli superfosfat, ammoniy sulfofosfat va nitrokalsiyfosfat mahsulotlarini ishlab chiqarmoqda. Ushbu korxonalar xomashyo bilan Qizilqum fosforit kombinati tomonidan ta'minlanadi. "Elektrokimyo zavod" QK AJ esa o'simliklarni himoya qilish uchun kimyoviy vositalar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan.

Kompaniya korxonalarini ishlab chiqarayotgan mahsulot turlaridan kelib chiqib, quyidagi ishlab chiqarish majmualariga ajratiladi:

- mineral o'g'itlar, noorganik moddalar va energetika, oltinkon hamda kimyo sanoati uchun kimyoviy reagentlar ishlab chiqarish majmuasi;
- organik kimyo, sun'iy tolalar va polimer materiallar ishlab chiqarish majmuasi;
- o'simliklarni himoya qilish uchun kimyoviy vositalar ishlab chiqarish majmuasi;
- kalsiyashtirilgan soda ishlab chiqarish majmuasi.

"O'zkiyosanoat" AJ korxonalarini tomonidan 170 dan ortiq turdagi kimyo mahsulotlari ishlab chiqariladi. Kimyo sanoati mamlakatimizning turli hududlaridagi mavjud resurs zaxiralari asosida yirik ishlab chiqarish quvvatlarini qamrab oluvchi strategik soha hisoblanadi.

Asosiy sanoat obyektlari respublikaning Navoiy ("Navoiyazot" AJ), Farg'ona ("Farg'onaazot" AJ, Farg'ona furan birikmalari kimyo zavodi, Farg'ona kimyoviy tolalar zavodi), Qoraqalpog'iston Respublikasi (Qo'ng'iroq soda zavodi), Chirchiq ("MAXAM-CHIRCHIQ" AJ), Samarqand ("Samarqandkimyo" AJ) va boshqa yirik hududlarida ("Elektrokimyo zavod" AJ, "O'zkiyosanoatloyiha" AJ) joylashtirilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish, resurslardan tejamkorlik asosida foydalanish hamda mavjud moddiy-texnik bazadan samarali foydalanishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar "O'zkiyosanoat" AJ tizimida ham izchil amalga oshirilmoqda. Jumladan, "O'zkiyosanoat" AJ tarkibida quyidagi ilmiy izlanishlar olib boruvchi tashkilotlar faoliyat yuritadi:

- "O'zkiyosanoatloyiha" AJ loyihalash instituti;
- Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti (TKTITI).

Tadqiqot ishining obyekti sifatida "O'zkiyosanoat" AJ tarkibiga kiruvchi "MAXAM-CHIRCHIQ" AJ hamda "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ sanoat korxonalarini tanlab olindi. Mazkur korxonalar o'z faoliyati davomida quyidagi tarixiy rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan.

"MAXAM-CHIRCHIQ" AJ faoliyati hukumatning suvni elektroliz usuli orqali vodorod olish va havodan ajratish yo'li bilan azot ishlab chiqarish asosida azotli o'g'itlar ishlab chiqaruvchi Chirchiq elektr-kimyo kombinati qurilishi to'g'risidagi qarori qabul qilingan davrdan, ya'ni 1932-yil aprel oyidan boshlangan. 1940-yilda asosiy



taqsimlash podstantsiyasi, havoni ajratish sexi hamda suvni elektroliz qilish sexlarining qurilishi boshlandi. Shu yilning oktabr oyida ammiakli selitranning ilk mahsuloti olindi. Chirchiq elektr-kimyo kombinatining birinchi navbati 1941-yil 25-yanvarda rasman ishga tushirildi. Keyingi davrda kombinatning ikkinchi navbati — ammiak olishning konversion liniyasini qurish ishlari amalga oshirildi.

1949-yilda nikel-xrom katalizatorini ishlab chiqaruvchi katalizator sexi foydalanishga topshirildi. 1958-yilda konversion usul asosida ammiak ishlab chiqarish texnologik jarayoniga muhim takomillashtirishlar kiritildi. Xususan, oltingugurt aralashmalaridan gazni tozalash sexi hamda changni ushlash uchun ho'l plenkali filtrga ega yangi GIAP gaz generatori ishga tushirildi. 1965-yilda suvni elektroliz qilish sexining M-18 bo'linmasi foydalanishga topshirildi. 1972-yilda esa kuchsiz nitrat kislota sexida azot oksidlari tashlamalarini selektiv tozalash qurilmasi montaj qilindi.

1962-yilda to'liq suyuq retsirkulyatsion sxema asosida "Stamicarbon" golland kompaniyasidan xarid qilingan karbamid sexi qurilishi boshlandi. 1964-yilda ushbu sex foydalanishga topshirildi. Shuningdek, 1964-yilda ammiakli selitra ishlab chiqarish bo'yicha ikkita granulyatsiya minorasida qurilish-montaj ishlari yakunlandi va 1965-yildan boshlab tangachali selitra o'rniga donadorlangan ammiakli selitra ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. 1960–1970-yillarda kombinatda asbob-uskunalarini yangilash va modernizatsiya qilish ishlari keng ko'lamda amalga oshirildi.

1970-yilda yangi ishlab chiqarish quvvatlari foydalanishga topshirildi. 1972-yilda AK-72 nitrat kislota yirik tonnajli agregatida kuchsiz nitrat kislota ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. 1975-yilda Chirchiq elektr-kimyo kombinati "Elektrkimyosanoat" ishlab chiqarish birlashmasi deb qayta nomlandi.

1980-yilda birlashmada kaprolaktam ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirildi. 1981-yilda AM-76 yirik ammiak sexining qurilishi boshlandi va 1984-yilda foydalanishga topshirildi. Ushbu loyiha bilan bir qatorda NDF tozalash inshootlari bo'yicha barcha qurilish-montaj ishlari ham yakunlandi. 1984-yil oxirida karbamid sexining maxsus suv aylanish sikliga ega yangi granulyatsiya minorasi qurib bitkazildi.

1988-yil yanvar oyida AK-72M yangi agregatida nitrat kislotaning dastlabki tonnalari olindi. Mazkur agregat texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha avvalgi AK-72 agregatiga nisbatan samaraliroq bo'ldi. Shu sababli AK-72M ishga tushirilgandan so'ng AK-72 agregati 1989-yil aprel oyigacha rekonstruksiya qilish uchun to'xtatildi. Rekonstruksiya ishlari yakunlangach, ma'naviy va jismoniy jihatdan eskirgan 5-sex faoliyati to'xtatildi.

1993-yil dekabr oyida KA-15-5 havoni ajratish sexining yangi bloki foydalanishga topshirildi. Ushbu blok 1936-yilda ishlab chiqarilgan eski ammiak-sovitkich qurilmalarini zamonaviy uskunalar bilan almashtirish imkonini yaratdi.

2002-yilda "Elektrkimyosanoat" ishlab chiqarish birlashmasi "Elektrkimyosanoat" ochiq aksiyadorlik jamiyatiga aylantirildi. 2007-yilda esa "Elektrkimyosanoat" OAJ "MAXAM-CHIRCHIQ" OAJ deb qayta nomlandi.

2004-yilda karbamid ishlab chiqarish sexida nasos parki "Sundyne" firmasining markazdan qochma yuqori tezlikdagi nasoslari bilan modernizatsiya qilindi. 2009-yilda AM-76 yirik tonnajli agregati rekonstruksiya va modernizatsiya qilinib, uning ishlab chiqarish quvvati yiliga 420 ming tonnaga yetkazildi.

2010-yil may oyida past zichlikdagi ammoniy nitrat ishlab chiqarish qurilmasini barpo etish ishlari boshlandi. Mazkur loyiha uchun "MAXAM Corp International S.A.U." (Ispaniya) kompaniyasi tomonidan investitsiyalar jalb qilindi.

Hozirgi vaqtda korxonada avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xizmat va uchastkalarini avtomatlashtirish, axborot texnologiyalarini keng qo'llash hamda kompyuter tarmoqlari asosida kompleks boshqaruv tizimini shakllantirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar olib borilmoqda.

"MAXAM-CHIRCHIQ" AJning asosiy aksiyadorlari "O'zbekimyo sanoat" AJ hamda "MaxamCorp International S.L." korporatsiyasi hisoblanadi. "MaxamCorp International S.L." kompaniyasi dunyoning yetakchi kimyo mahsulotlari ishlab chiqaruvchilaridan biri bo'lib, uning bosh qarorgohi Ispaniyada joylashgan hamda turli mintaqalarda vakolatxona va ishlab chiqarish quvvatlariga ega.

"MAXAM-CHIRCHIQ" AJ O'zbekistondagi kimyo sanoatining yirik korxonalaridan biri bo'lib, 40 dan ortiq turdagi mahsulotlarni ishlab chiqaradi. Korxonada mahsulotlari MDH davlatlari va boshqa xorijiy mamlakatlarga, jumladan Rossiya, Qozog'iston, BAA, Avstraliya, Eron, Turkiya, Malayziya va boshqa davlatlarga eksport qilinmoqda.

Korxonada ISO 9001:2015, ISO 50001:2021, ISO 14001:2015 hamda ISO 45001:2021 xalqaro standartlariga muvofiq integrallashgan menejment tizimini joriy etish va takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

"Dehqonobod kaliy zavodi" qurilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 1-maydagi qarorlari asosida amalga oshirildi. Jumladan, 2007-yil 17-dekabrda PQ-632-sonli<sup>1</sup> "Tepaqo'ton kaliy tuzi koni negizida

1 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 08.10.2025 yildagi 632-son <https://lex.uz/uz/docs/-7759309>



Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi qurilishini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda PQ-748-sonli<sup>2</sup> "Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi qurilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlariga muvofiq qurilish ishlari boshlab yuborildi.

Qurilishning umumiy qiymati 128,2 mln AQSH dollarini tashkil etib, loyiha O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi — 61,7 mln dollar, XZR Eksimbanki — 41,7 mln dollar hamda Kimyo sanoati korxonalarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash jamg'armasi — 24,8 mln dollar kredit mablag'lari hisobidan moliyalashtirildi.

Ruda qazib olish bo'yicha birinchi bosqichning ishlab chiqarish quvvati yiliga 700 ming tonna, kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarish quvvati esa yiliga 200 ming tonnani tashkil etadi.

Ishlab chiqarish quvvatlarini yanada kengaytirish maqsadida "Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi"ning ikkinchi bosqichini qurish bo'yicha PQ-1455-sonli<sup>3</sup> "O'zbekiston Respublikasining 2011-yilga mo'ljallangan Investitsiya dasturi to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. Ushbu hujjatlar asosida yordamchi boshqaruv markazi quvvatlarini kengaytirish ishlari amalga oshirildi.

Ikkinchi bosqichning ishlab chiqarish quvvati yiliga 400 ming tonna kaliy xlorid ishlab chiqarishga mo'ljallangan bo'lib, uning 75 foizini eksport qilish rejalashtirilgan. Loyihaning asosiy maqsadi kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarish hajmini oshirish hamda zavodning umumiy ishlab chiqarish quvvatini yiliga 600 ming tonnaga yetkazishdan iborat.

2020–2025-yillar davomida tog'-kon majmuasi tomonidan 15 229,5 mlrd so'mlik tovar mahsuloti ishlab chiqarildi. Shuningdek, asosiy turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish doirasida 3 080 887 tonna sintetik ammiak, 725 329,2 tonna ammoniy nitrat hamda boshqa turdagi kimyo mahsulotlari ishlab chiqarildi.

"MAXAM-CHIRCHIQ" AJda 2020-yilda tovar mahsuloti hajmi joriy narxlarda 624,6 mlrd so'mni tashkil etdi. 2021-yilda ushbu ko'rsatkich 49,0 foizga oshib, 930,8 mlrd so'mga yetdi. 2022-yilda esa tovar mahsuloti hajmi 1 393,9 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 49 foiz o'sish qayd etildi. 2023-yilga kelib mazkur ko'rsatkich 30 foizga oshib, 1 811,4 mlrd so'mga yetdi. 2024–2025-yillar davomida tovar mahsuloti hajmida barqaror o'sish tendensiyasi kuzatildi. Jumladan, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 2 192,0 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 3,9 foizga oshib, 2 277,4 mlrd so'mga yetdi.

Asosiy turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi tahlili shuni ko'rsatadiki, sintetik ammiak ishlab chiqarish 2020-yilda 522 920 tonnani tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda 528 384 tonnaga yetib, 1 foiz o'sish qayd etilgan. 2022-yilda ushbu ko'rsatkich 488 847 tonnani tashkil etgan bo'lsa-da, 2023-yilda talabning ortishi hisobiga ishlab chiqarish hajmi 550 450 tonnaga yetdi. Aynan shu yilda sintetik ammiakning tovar ko'rinishidagi mahsuloti ham ishlab chiqarilib, uning hajmi 59 842 tonnani tashkil etdi. 2024-yilda sintetik ammiak ishlab chiqarish hajmi 532 741 tonnaga yetgan bo'lsa, 2025-yilda texnologik va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish natijasida ishlab chiqarish hajmi 457 545 tonnani tashkil etdi. Shuningdek, 2023-yilda 100 foiz azotli mineral o'g'itlar ishlab chiqarish hajmi 350 407 tonnaga yetdi.

Ammoniy nitrat ishlab chiqarish hajmi 2020-yilda 39 737,5 tonnani tashkil etdi. 2021-yilda ushbu ko'rsatkich 32 212,3 tonnani tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilda 37 428,1 tonnagacha tiklandi. 2023-yilda esa ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada oshib, 536 615 tonnaga yetdi. 2024-yilda 53 771,3 tonna ammoniy nitrat ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilda ishlab chiqarish hajmi 25 565 tonnani tashkil etdi. Bu holat ishlab chiqarish tarkibini diversifikatsiya qilish va boshqa mahsulot turlariga ustuvor e'tibor qaratilishi bilan izohlanadi.

Karbamid mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2020-yilda 270 818,9 tonnani tashkil etdi. 2021-yilda ushbu ko'rsatkich 248 920,2 tonnani, 2022-yilda esa 209 374,6 tonnani tashkil etdi. 2023-yilda ishlab chiqarish hajmi yana tiklanib, 255 413 tonnaga yetdi va o'tgan yilga nisbatan 21,9 foiz o'sish qayd etildi. 2024-yilda karbamid ishlab chiqarish hajmi 236 968,8 tonnani tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda ishlab chiqarish hajmi 181 523,9 tonna bo'ldi. Mazkur holat korxonada mahsulot nomenklaturasini optimallashtirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan bog'liq jarayonlar natijasi sifatida baholanishi mumkin.

Ammoniy sulfat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2020-yilda 181 645 tonnani tashkil etdi. 2021-yilda ushbu ko'rsatkich 9,9 foizga oshib, 199 635 tonnaga yetdi. 2022-yilda 208 649 tonna, 2023-yilda esa 222 608 tonna mahsulot ishlab chiqarildi. 2024-yilda ishlab chiqarish hajmi 233 252 tonnaga yetib, barqaror o'sish tendensiyasi davom etdi. 2025-yilda ishlab chiqarish hajmi 198 924 tonnani tashkil etdi.

Konsentratsiyalanmagan nitrat kislota mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2020-yilda 430 132 tonnani tashkil etdi. 2021-yilda ushbu ko'rsatkich 8,8 foizga oshib, 468 151 tonnaga yetdi. 2022-yilda 449 555 tonna, 2023-yilda esa 487 912 tonna mahsulot ishlab chiqarildi va o'tgan yilga nisbatan 8,5 foiz o'sish qayd etildi. 2024-yilda ishlab chiqarish hajmi 492 953,9 tonnaga yetdi. 2025-yilda esa ushbu ko'rsatkich 449 392 tonnani tashkil etdi. Shu jumladan, 2023-yilda tovar ko'rinishida 22 044 tonna konsentratsiyalanmagan nitrat kislota ishlab chiqarildi.

Sulfat kislotasi mahsuloti 2020-yilda 155 389,3 tonna ishlab chiqarilgan. 2021-yilda ushbu ko'rsatkich 18,3 foizga oshib, 183 915 tonnani tashkil etdi. 2022–2023-yillarda sulfat kislotasi ishlab chiqarish hajmi nisbatan

2 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.09.2017 yildagi 748-son <https://lex.uz/docs/-3359038>

3 2010-yil 29-dekabrda PQ-1455-son qaror <https://lex.uz/acts/-1760607>



barqaror saqlanib, mos ravishda 186 645 tonna va 186 170 tonnani tashkil etdi. 2024-yilda ishlab chiqarish hajmi 190 216 tonnaga yetgan bo'lsa, 2025-yilda ushbu ko'rsatkich 174 168 tonnani tashkil etdi.

“MAXAM-CHIRCHIQ” AJning asosiy ishlab chiqarish ko'rsatkichlarida kuzatilgan ijobiy o'sish tendensiyasiga korxonada 2021–2025-yillar davomida amalga oshirilgan keng qamrovli diversifikatsiya ishlari, mahsulot ishlab chiqarish hajmi va realizatsiya ko'rsatkichlarining ortishi, shuningdek, ichki va tashqi bozor valyuta kurslarining barqarorlashuvi muhim ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga, import narxlarining maqbullashuvi ham ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Korxonadan mahsulotlar eksportini kengaytirish, yangi tashqi bozorlarga chiqish hamda xomashyo va materiallar importini qisqartirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur yo'nalishlar bo'yicha olib borilgan tahlillar dissertatsiyaning 2.2-paragrafidan batafsil yoritilgan.

Bugungi kunda “MAXAM-CHIRCHIQ” AJda kaprolaktam kimyoviy ishlab chiqarish chiqindilarini utilitatsiya qilish va qayta ishlashni tashkil etish bo'yicha investitsion loyiha amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihaning umumiy qiymati 3 mln AQSH dollarini tashkil etadi. Loyihaning asosiy maqsadi kaprolaktam ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'ladigan chiqindilarni samarali qayta ishlash va ekologik xavfsizlikni ta'minlashdan iborat.

Shuningdek, “MAXAM-CHIRCHIQ” AJda innovatsion faoliyatni rivojlantirish, innovatsiyalarni yaratish va amaliyotga joriy etish bo'yicha ham salmoqli ishlar olib borilmoqda. Hozirgi davrda kompaniya raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyalarni yaratish, mineral xomashyo va resurslarni tadqiq etish, qazib olish hamda chuqur qayta ishlashning yuqori texnologik usullarini ishlab chiqish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni tiklash, atrof-muhitni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish, qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi usul va vositalarni ishlab chiqish, yuqori samarali qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun zamonaviy kimyoviy o'g'it va qo'shimchalarni yaratish bo'yicha ham ilmiy-amaliy ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiyot tarmoqlarida energiya, suv, yer va boshqa resurslarni tejashga qaratilgan innovatsion texnologiyalar hamda texnik yechimlarni ishlab chiqish kompaniyaning ustuvor strategik yo'nalishlari qatoriga kiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Fikrimizcha, respublikamizdagi yetakchi kimyo sanoati korxonalaridan biri bo'lgan “MAXAM-CHIRCHIQ” AJning innovatsion faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish hamda belgilangan maqsadlarni korxonaning asosiy strategik yo'nalishlari bilan muvofiqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, davlat buyurtmasi asosida amalga oshiriladigan ishlar bo'yicha sanoat majmuasi tashkilotlari va korxonalar o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish zarur hisoblanadi. Davlat buyurtmasi asosida kimyo sanoati majmuasi korxonalar va tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish ajratilayotgan mablag'lardan samarali foydalanish, ularni istiqbolli texnologik loyihalarga yo'naltirish hamda moliyaviy resurslardan maqsadli va oqilona foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, byudjet mablag'lari hisobidan ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirish uchun ajratiladigan xarajatlar ulushini oshirish hamda kimyo sanoati korxonalarida foyda va boshqa tushumlarning innovatsion ishlanmalarga yo'naltiriladigan qismini soliq imtiyozlari orqali qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiqdir. Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan takliflar nafaqat kimyo sanoati korxonalarini, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoq korxonalarini faoliyati samaradorligini oshirish, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish hamda raqobatbardoshlikni kuchaytirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Statistika nauki i innovatsiy: kratkiy terminologicheskiy slovar / Pod redaksiyey L.M. Goxberga. – M.: 1996. – 31 s.
2. Shumpeter Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya. – M.: Progress, 1982. – 169 s.
3. Tviss B. Upravleniye nauchno-texnicheskimi novovvedeniyami / Per. s angl. – M.: Ekonomika, 1989. – 271 s.
4. Santo B. Innovatsiya kak sredstvo ekonomicheskogo razvitiya / Per. s veng. – M.: Progress, 1990. – 296 s.
5. Drucker P.F. Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. – London: Pan Books, 1986. – 55 p.
6. Prigojin A.I. Novovvedeniye: stimuly i prepyatstviya (sotsialniye problemi innovatiki). – M.: Politizdat, 1989.
7. Anshin V.M. Innovatsionnaya strategiya firmy: uchebnoye posobiye. – M.: REA im. Plexanova, 1995.
8. Glazev S.Y. Teoriya dolgosrochnogo texniko-ekonomicheskogo razvitiya. – M.: 1993.
9. Dagayeva A.A. Faktor NTP v sovremennoy rynochnoy ekonomike: uchebnoye posobiye. – M.: Nauka, 1994.
10. Fatxutdinov R.A. Innovatsionniy menedjment. – M.: 1998.
11. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. J.P. YE-M. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi DIN, 2006. – 213 b.
12. Bolshaya ekonomicheskaya ensiklopediya. – M.: Eksmo, 2007. – 257 s.
13. Lazonick, William. “Innovative Business Models and Varieties of Capitalism: Financialization of the US Corporation” // Business History Review. – 2010. – Vol. 84. – P. 675–702.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 5 (3)

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---